



IQTISODIY TERMINLAR TARKIBIDA SO'ZLARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA TURLARINING TAKOMILLASHUVI

Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna
*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent, Samarqand iqtisodiyot va
servis instituti,*
dilyuldasheva83@gmail.com

Dushamov Surojbek
Tojiboyev Dostonbek
Asrorov Kamronbek
"Iqtisodiyot" fakulteti talabalari
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy so'zlarning leksikografik tahlilini, ularning qanday bosqichda takomillashtirilishi kerakligini va bu takomillashuvning iqtisodiy fanlardagi yangiliklar bilan qanday bog'liqlikka ega bo'lishi kerakligini qamrab olishga harakat qildik. Bunda iqtisodiy terminlarning tarjimalari, ularning turlari, o'zaro munosabatlari va shakl-ma'nolari haqida tushunchalar berildi. Maqolada, iqtisodiy so'zlar va ularning o'ziga xos ma'nolari bo'yicha misollar taqdim qilinadi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy terminlar, iqtisodiy terminologiya, leksika, leksikografik tahlil, fundamental terminlar, shartnoma, o'zgaruvchan terminlar, stilistik o'zgarishlar.

Аннотация: В данной статье мы постарались осветить лексикографический анализ экономических слов, на каком этапе их следует совершенствовать и как это совершенствование должно быть связано с инновациями в экономических науках. Разъяснялись переводы экономических терминов, их виды, взаимоотношения, формы и значения. В статье приведены примеры экономических слов и их конкретные значения.

Ключевые слова: Экономические термины, экономическая терминология, лексика, лексикографический анализ, фундаментальные термины, договор, переменные термины, стилистические изменения.

Abstract: In this article, we tried to highlight the lexicographic analysis of economic words, at what stage they should be improved and how this improvement should be related to innovations in economic sciences. The translations of economic terms, their types, relationships, forms and meanings were explained. The article provides examples of economic words and their specific meanings.

Keywords: Economic terms, economic terminology, vocabulary, lexicographic analysis, fundamental terms, contract, variable terms, stylistic changes.

Kirish. Iqtisodiy so'zlar, o'z ichiga rivojlangan mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ko'pgina aspektni qamrab olgan leksika - yoki so'zlar to'plamini o'z ichiga oladi. Bu so'zlar, o'z navbatida, shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turli turlarga bo'linadi. Mavjud bo'lgan so'zlarni shakl, ma'no va mazmunga ko'ra farqlashadi, shuningdek, ularni bir-biri bilan solishtirishadi. Bu maqolada, biz



iqtisodiy terminlar turining takomillashuvi va ularning o'zaro munosabatlari bo'yicha suhbatlashamiz. Hozirgi paytda, "terminologiya" va "iqtisodiy so'zlar" terimlarining o'zini tushunish, ularni o'zaro farqini anglash va ularning iqtisodiy fanlarda qanday muhim ahamiyatli ekanligini ko'rsatib o'tamiz. Keyinroq, bu terminlarning turli shakl va ma'nolari haqida, ularning o'zaro munosabatlari, takomillashuvi va ularning rivojlanishi kabi muhim aspektlarni o'rganib chiqamiz.

Asosiy qism: Boshqa tillardan o'zbek tiliga kirib kelayotgan iqtisodiy terminlar dastlab mutaxassislar muhokamasidan o'tishi, so'ngra Oliy Majlisning tegishli qo'mitasidan tasdiqlanishii lozim. Ana shundagina bunday iqtisodiy terminlar qonuniy kuchga kiradi va ularni bemalol qo'llash mumkin. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin bosqichma- bosqich bozor iqtisodiyotiga o'tib bormoqda. Jamiyatda bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari joriy qilinmoqda. Bozor iqtisodiyotiga xizmat qiluvchi neologizmlar yanada ko'paymoqda. Bularning muayyan qismi ona tilimiz imkoniyatlari asosida o'zbekchalashtirib berilmoqda, ma'lum qismi esa baynalminal o'zlashma sifatida ishlatilmoqda. Iqtisodiyot terminlarining o'zbek tilida qo'llanilishida quyidagi holatlarni kuzatish mumkin:

1. Ko'plab terminlar tilimiz imkoniyatlari asosida o'zbekchalashtirilgan. Bunda bir guruh terminlar o'zbek tilidagi tayyor muqobillari bilan berilmoqda, ma'lum qismi esa tarjima qilinib ishlatilmoqda, bir qismi esa o'zbek tili qonun qoidalari asosida yasalmoqda. Masalan: auktsion-kimoshdi, makler-dallol, kommersant-tijoratchi, komissionie voznagrajdeniya-vositachilik haqi, ekonomika-iqtisodiyot, chek na pred'yavitelya-oq chek, shaxssiz chek, aksioner-aksiyador, biznesmen-bizneschi va hokazolar.

2. Yana bir usul dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida ishlatilib kelinayotgan baynalminal terminlarning o'zbek tiliga ham o'z holicha o'zlashtirilishidir. Bu o'rinda shuni ta'kidlash zarurki, yangidan kirib kelayotgan terminlarning hammasiga ham o'zbekcha muqobilini topish qiyin. Shuning uchun ularning asosiy qismi dunyoning ko'pchilik mamlakatlari tillarida bir shaklda o'z asl holicha ishlatiladi va bu qo'llanish dunyo biznesmenlari axborot almashinuvi uchun qulay. Masalan: korrupsiya, kredit, eksport, grant, auditor, avizo, valyuta, lizing, menedjer, litsenziya, biznesmen, norezident. Quyida iqtisodiyot sohasida keng ishlatiladigan bir nechta terminlarni keltiramiz. Ularning ba'zilari o'zbekcha so'zlar bo'lsa, ba'zilari esa boshqa tillardan bevosita kirib kelib tilimizda qo'llanilmoqda.



AUKSION - (lot.auction) - "kimoshdi" savdosi, ochiq savdo qilish. Bu savdo xizmati mahsulotni eng yuqori narxga ko'targan xaridor sotib oladi.

BANK - yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtiga qarab pul mablag'larini yig'uvchi va uzluksiz aylanib turushini ta'minlovchi, korxonalariga va umuman pulga tekshirishga kredit, suda qilingan, tomonlar ishlash to'lovi va boshqa hisob-kitob ishlarida vositachilik qilib turuvchi, oltin va chet el valyutasi bilan bog'liq operatsiyalarni bajaruvchi kredit-moliya muassasasi.

BIZNES- (inglizcha business-ish, faoliyat, mashg'ulot) boyluk, foyda orttirishga yo'naltirilgan ish, faoliyat. Biznes xo'jalik yuritish ko'lamiga qarab yirik, o'rta va mayda turlarga bo'linadi. Xodimlarning o'rtacha soni va mahsulot hajmiga qarab ajratiladi.

BIZNESMEN - (inglizcha business-ish, man-odam)- biznes bilan shug'ullanuvchi shaxs, korchalon.

BIRJA - (goll.beurs, nem. Borse-hamyon)- 1) mahsulot, valyuta va qimmatbaho qog'ozlarni ayirboshlashda, hisob va ma'lumot xizmatlarini amalga oshirishda faol qatnashuvchi tashkilot. Xizmat ko'rsatgani uchun vositachilik yig'imini oladi; 2) birja savdo-sotig'i bo'ladigan joy.

BOJ- (arab.-o'lpon, soliq) - bojxona nazorati ostida davlat tomonidan mamlakat chegarasidan olib o'tiladigan tovarlar, mol-mulk va qimmatbaho qog'ozlardan undiriladigan pul yig'implari.

BROKER - (ingl.broker)- mahsulot, qimmatbaho qog'ozlar, valyuta sotuvchilar va xaridorlar o'rtasidagi rasmiy dallol. O'zi yoki mijozlar nomidan kelishuvlar, shartnomalar tuzish huquqiga ega shaxs.

VALYUTA - (ital. valuta. lat. valere- qadrlanmoq, qiymat)- mamlakatning pul birligi va uning tipi (oltin, kumush, qog'oz, pul)ga tenglashtirilgan to'lov vositalari.

VEKSEL - (nem.Wechsel, aynan-ayirboshlash)- qarz majburiyatlari xususida yozma holda berilgan maxsus ko'rinishdagi qimmatbaho qog'oz. qarz bergan tomon vekselda ko'rsatilgan muddat tugashi bilan qarzni talab qilish huquqiga ega.

IMPORT - (lat.importo-kiritaman) - 1) mamlakat ichiga foydalanish yoki sotish uchun chetdan olib kelingan xorijiy mahsulotlar; 2) kapital – xorijdan mamlakatga kelayotgan kapital (kredit, zayom va boshqa); 3) chetdan olib kelingan mahsulotlarning umumiy soni va qiymati.

INVESTISIYA - (nem.investitlion, lat. investire- kiyintirmoq)- investor tomonidan biror bir faoliyatni amalga oshirish uchun kapital mablag'larni,



sarmoyalarni joriy qilish, foyda olish maqsadida sarf qilish. Mamlakat ichida (ichki investisiya) va xorijiy mamlakatlarda (tashqi investisiya) amalga oshirilishi mumkin. Moliya investitsiyasi- qimmatbaho qog'ozlarni xarid qilish, pul mablag'larini jamg'arish va boshqalarni, real moddiy ishlab chiqarishga sarflangan sarmoyalarni o'z ichiga oladi.

IPOTEKA - (yunon.hypotheke-garov)- qarz, kredit olish uchun biror-bir muayyan ko'chmas mulkni (yer, imorat va hokazo) garovga qo'yish.

LITSEZIYA - (lat.licentia-erkinlik, huquq)- ruxsatnoma; 1) chet mamlakatlardan mol keltirish yoki chet elga mol chiqarish uchun davlat organlari tomonidan beriladigan ruxsatnoma; 2) biror narsadan yengil shartlar bilan yoki bepul foydalanish huquqi; 3) chegaradan mol chiqarish yoki mol kiritishda boj to'lovlarini kamaytirish. Patentlangan litsenziya - ro'yxatga olinib, guvohnoma berilgan kashfiyotdan foydalanish huquqini boshqalarga berish.

PATENT - (lot. patens-guvohnoma, yorliq)- 1) xususiy tarzda tadbirkorlikning biror bir turi bilan shug'ullanishga ruxsat beruvchi guvohnoma, tegishli hujjatlar asosida moliya organlari tomonidan beriladi; 2) ilmiy kashfiyot va ixtiroga mualliflikni tasdiqlovchi guvohnoma. Patent davlat tomonidan patentlashtiriladi.

POLIS - (fr.police, ital, pollissa-tilxat)-shaxsiy yoki mulkiy sug'urta shartnomasi tuzilgani va uning shartlari haqidagi hujjat.

REKLAMA - (fr.reclame)-tovar yoki ko'rsatiladigan xizmat to'g'risidagi xolis axborot, ularni ko'proq sotish maqsadida xaridorlarga ularning xossalari, afzalliklari va sotib olish shartlarini yetkazish.

SERTIFIKAT - (fr.certifikat-tasdiqlayman, guvohlik beraman) - bu guvohlik beruvchi hujjatdir. Masalan: auditor sertifikati- e'lon qilingan firma balansining to'g'riligini tasdiqlovchi hujjat. Sug'urta sertifikati- bu sug'urta shartnomasining shartlari qayd etilgan hujjat. Aksionerlik sertifikati- bu o'z egasining jamiyat (kompaniya) kapitalining bir qismiga egaligini tasdiqlovchi hujjat. Tashqi iqtisodiy aloqalarda tovar sifati guvohnomasi va h.k.

Xulosa. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti mexanizmlarining takomillashuvi natijasida xususiy mulkchilikning barcha shakllari rivojlanib, tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochilmoqda, natjada chet davlatlar bilan oldi-sotdi ya'ni export import ishlari amalga oshirilmoqda bu borada esa chet tilini bilish juda muhim, xususan iqtisodiy neologizmlarni tushunish har birimizga kerak. Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga jahon andozalari darajasi bilim olgan zakovatli, har tomonlama



barkamol, dunyoqarashi keng milliy kadrlarni tayyorlashda chet tilining xizmati katta hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akobirov S. Til va terminologiya. -T., 1968.
2. Anikina A. Iqtisodiy atamalar lug'ati inglizcha-ruscha. T., 1993.
3. Bektemirov X., E.Begmatov. Mustaqillik davri atamalari. -T.,2002.
4. Barotov.Z Iqtisodiy matnlarda neologiznlarning tarjima qilinishi. S., 2013.
5. Husanov N. Mirahmedova Z. Iqtisodiy atamalar va ish yuritish.-T., 2005. B. 106.
6. "Iqtisodiy matnlarda neologiznlarning tarjima qilinishi" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi _ Samarqand-2013.
7. Salimova N. Iqtisodiyotga oid matnlar tarjimasining o'ziga xosliklari. T.,2015.
8. Tursunov U. O'zbek terminologiyasi masalalari. -Toshkent, 1933.
9. Toymuhammedov I. Bank ishi – Toshkent, 2005.
- 10.Tog'ayev S. Bank ishi uslubiy qo'llanma. –Samarqand 2016.
- 11.Zoyirov Z. Iqtisodiyotga oid atamalar va tushunchalar izohli lug'ati. Toshkent, 2004.